

TARBIYA JARAYONIDA DINIY MANBALARDAN FOYDALANISHDA PSIXOLOGIK POLEMIKALARNI OLIB BORISH MASALALARI TO‘G‘RISIDA

Qodirov Qutlug‘-Bek Bekmurodovich,
Termiz davlat pedagogika instituti,
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.
<https://orcid.org/0009-0002-7768-0211>;

Annotatsiya. Bugungi kunda jamiyatdagi ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga va rivojlangan zamonaviy davlat barpo etish masalasini muvaffaqiyatli hal qilish talabiga to‘la javob bera oluvchi ma’naviy pok, sog‘lom avlodni voyaga yetkazishda ota-bobolarimizning an‘analari, dinimizning ijobiy sifatlarini tadqiq etish ushbu merosdan tarbiya jarayonida foydalanishning zaruriyati paydo bo‘ldi. Maqolada psixologik jihatdan ilmiy bahs olib borishda islom dini manbalarining psixologik va pedagogik istiqbollari, diniy manbalarining ilmiy jihatdan tahlili, bu borada islom olami namoyondalarining fikrlari tahlilga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar. Tarbiya, jarayon, islom dini, diniy manba, pedagogika, psixologiya, polemika, qadriyat.

О ЗАДАЧАХ ВВЕДЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПОЛЕМИК В ИСПОЛЬЗОВАНИИ РЕЛИГИОЗНЫХ ИСТОЧНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ВОСПИТАНИЯ

Кадыров Кутлуг-Бек Бекмурадович,
Термезский государственный педагогический институт,
доктор педагогических наук (DSc), доцент.
<https://orcid.org/0009-0002-7768-0211>;

Аннотация. Сегодня необходимо изучать традиции наших предков и положительные качества нашей религии и использовать это наследие в образовательном процессе для воспитания духовно чистого и здорового поколения, способного полностью соответствовать требованиям

осуществления позитивных изменений в обществе и успешного решения вопроса построения современного развитого государства. В статье рассмотрены психолого-педагогические аспекты источников ислама, по поводу, произведен научный анализ религиозных источников, мнений представителей исламского мира.

Ключевые слова. Воспитание, процесс, исламская религия, религиозный источник, педагогика, психология, полемика, ценность.

FROM RELIGIOUS SOURCES IN THE PROCESS OF UPBRINGING USING PSYCHOLOGICAL POLEMICS ON GOING MATTERS

Kadyrov Kutlug-Bek Bekmuradovich,

Termez State Pedagogical Institute,

doctor of pedagogical sciences, assistant professor.

<https://orcid.org/0009-0002-7768-0211>;

Annotation. Today, it is necessary to study the traditions of our forefathers and the positive qualities of our religion and use this heritage in the educational process to bring up a spiritually pure and healthy generation that can fully meet the requirements of implementing positive changes in society and successfully solving the issue of building a developed modern state. Psychological and pedagogical perspectives of the sources of Islam, scientific analysis of religious sources, opinions of representatives of the Islamic world in this regard are focused on the psychological and scientific debate in the article.

Keywords. Upbringing, process, Islamic religion, religious source, pedagogy, psychology, controversy, value

Kirish. Bugungi kunda jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga va rivojlangan zamonaviy davlat barpo etish masalasini muvaffaqiyatli hal qilishga qodir va hozirgi davr talabiga to'la javob bera oluvchi ma'naviy pok, sog'lom avlodni voyaga yetkazishda ota-bobolarimizning an'analari, udumlari, dinimizning ijobiy sifatlarini tadqiq etish, o'rganish va bizga yod bo'lgan g'oyalardan xalos etishga qaratilgan ushbu merosdan tarbiya jarayonida foydalanishning zaruriyati paydo bo'lgan.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ma'naviy-ruhiy erkinliklarga yo'l ochib berildi, haqiqiy diniy e'tiqod erkinligini shakllantirish masalalari rivojlantirildi.

Ta'lim muassasalarida ham muqaddas islom dinining mohiyati, uning insonparvarlik g'oyalari, dinga sog'lom munosabat masalalari o'zining oqilona ifodasini topmoqda.

Islomning asosiy g'oyalari, ishonch, diniy bag'rikenglik, o'zaro hurmat kabi ta'limotlarda ko'rinib, o'zida milliylik g'oyalarini aks ettiradi. Islomiy qadriyatlar ahamiyatini rad etmagan holda, ularni absolyutlashtirish milliy, ilmiy qadriyatlar rolini noto'g'ri baholashga olib kelishi mumkinligini ham hisobga olish muhimdir.

Din va unga e'tiqod, ma'naviyat inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy hayot, tinchlik va barqarorlikni tarkib toptirishda insonning ana shu ishonch va e'tiqodini hurmat qilish asosida uning dini, e'tiqodi, tafakkuri, ongini jamiyat taraqqiyotida ma'naviy-axloqiy talablarni hal etishga yo'naltirish muhim va zarurdir.

Qaysi davrga mansub bo'lmasin har bir millatning, har bir yurtning faxri va iftixori uning olimlari-yu, jahon ilm-fani va madaniyati ravnaqiga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi va qadrlanadi. Mana shu mezonga tayanib, adolat ko'zi bilan qaraydigan bo'lsak, ko'hna zaminimiz, hech bir mubolag'asiz, dunyoda eng ilg'or, oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Chunonchi, ilm-fanning qaysi bir jabhasini olmaylik – aniq fanlarmi, tabiiy fanlarmi yoki ijtimoiy fanlar deysizmi O'rta Osiyolik olimlarning xizmatlari beqiyosdir.

Ushbu tadbirlarning barchasi hukumatimizning diniy qadriyatlariga bo'lgan munosabatini aks ettirishi tabiiy holatdir. Mamlakatimizda qabul qilingan hujjatlarda fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog'liq asosiy huquqlarini kafolatlash bo'yicha barcha zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi turmush tarzi buning yorqin misoli bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq diniy omilning ijtimoiy va ma'naviy hayotdagi o'rnini tubdan o'zgardi. Buning asosiy sababi davlatning dinga bo'lgan munosabatida sodir bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq. Barcha fuqarolar haqiqiy e'tiqod erkinligini his eta boshladilar. Mamlakatimiz tarixan ko'p millatli o'lka bo'lgani hamda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik tufayli bu zaminda turli-tuman din vakillari emin-erkin yashab kelmoqdalar [7:33].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Diniy qadriyatlar muayyan davrdagi ma'lum bir xalq va davlatning milliy ehtiyojlari, hayot tarzi, ijtimoiy munosabatlarning turlarini ifoda etadi. Demak, qadriyatlarning umumligida ularni anglash va tushunish qoidalari yotadi. Diniy qadriyatlarni anglash esa e'tiqodga muhim omil yoki hodisa sifatida qarash ehtiyojini yuzaga chiqaradi.

XIV-XV asrlardagi rivojlanish sharoitida ilm-fan taraqqiyoti alohida o'rin tutdi. Hadisshunoslik, fiqh, riyoziyot, ilmi nujum, tibbiyot, falsafa, tarix, adabiyot, tilshunoslik, musiqa, aruz ilmi, she'riyat yuqori darajaga yetdi. Faqihlar Abdulmalik, Isomiddin va Shayx Shamsuddin Muhammad ibn Jazoiriy, faylasuflar Sa'duddin Taftazoniy, Mirsaid Sharif Jurjoniy, Yusuf Qorabog'iy, tilshunoslar Muhammad Olim va Xoja Fazlulloh Abullays, matematik va falakshunoslar Qozizoda Rumiy,

G'iyosiddin Jashid; Ali Qushchi, hakimlar Burhoniddin Nafis Kirmoniy, rassom Abdulhay Bag'dodiy, tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Davlatshoh Samarqandiy, Mirxond, Xondamir kabi buyuk allomalar ushbu davr ilm-fani rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

...Shuning uchun bu davrni O'rta Osiyoda X asrda boshlangan va keskin ravishda uzilib qolgan madaniy Uyg'onish-Renessansning cho'qqisi, deb atashga to'la asos bor [5:68].

Professor U.M.Uvatovning ta'kidlashicha, "Evropada hadis ilmi tarixini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan bo'lib, bu haqda batafsil ma'lumotlar D.G.Pfanmyuller, G.Y.Yeynboll, N.Y.Kulson kabi olimlar asarlarida keltirilgan. Yevropada hadis ilmi bilan shug'ullangan olimlar haqida qimmatli tadqiqot yaratgan sankt-peterburglik olim D.V.Ermakov to'g'ri qayd qilganidek, hadisshunoslik sohasi islomshunoslikka oid fanlar ichida eng kam o'rganilgan yo'nalishdir. Yana shuni qayd etish kerakki, yevropalik qator olimlar o'rtasida an'anaviy tus olgan tanqidiy hadisshunoslikni har doim ham haqqoniy (ob'ektiv) deb qarash to'g'ri emas. Bu haqda taniqli olim I.Golbdtierning qator ilmiy izlanishlarida ham qayd etilgan [4:6].

Har bir insoniylik jamiyati u yoki bu darajada yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor beradi. Bu isbotsiz haqiqatdir. Bu yo'nalishda ko'plab asarlar bitildi, fikrlar aytili.

Afsuski, jaholat ilm-fan bilan murosqa qila olmaydi. Amir Temurning buyuk davlat qurish orzusi, Forobiyning falsafasi, Ibn Sino tibbiyoti, Beruniyning qomusi, Navoiyning she'riyati jaholat qurboni bo'lib keldi.

Nafaqat, uzoq tariximiz, balki, misol tariqasida XIX asr oxiri XX asr boshlarini olaylik. Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Abdulqodir Shakuriylarning ham ilmiy-pedagogik, tarbiyaviy qarashlari, fikrlari ta'qib ostiga olindi yoki umuman ommaviy tus berilmadi.

Ushbu ta'lim darg'alarining yana bir zamondoshi, alloma Mahmudxo'ja Behbudiyning quyidagi fikrlari hozir ham o'z tarbiyaviy ta'sirini yo'qotmagan ko'rinadi : "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur".

Tadqiqot metodologiyasi. Diniy e'tiqod ijtimoiy ongni muvofiqlashtirib turish sohasida tarixiy jihatdan dastlabki shakl sifatida namoyon bo'ladi. Bunday qaraganda, dunyodagi barcha dinlarning kelib chiqishi va rivojlanishi bir-biriga o'xshaydi. Barcha qadimgi dinlar qabilalar o'rtasida paydo bo'lib, keyinroq esa millatlar diniga aylangan. Ular har bir xalqning ijtimoiy va siyosiy sharoitidan kelib chiqqan holda taraqqiy etgan va ular bilan qo'shib ketgan.

Eng muhimi, yoshlarni tarbiyalashda sogʻlom eʼtiqodni va diniy qadriyatlarga boʻlgan sogʻlom munosabatni shakllantirish muammolari avvalom bor, insonning axloqiy, maʼnaviy, maʼrifiy, madaniy sifatlarini rivojlantirishga hamda namoyon etishga boʻlgan intilishlari mavjud ekanligidan dalolat beradi.

“Eʼtiqod shaxs, jamoa, guruh, jamiyatning muayyan gʻoyalarga, baho va meʼyorlarga ikkilanmasdan, shubha qilmasdan, qatʼiy ishonch asosida shakllangan eng muhim va birinchi darajali sobit tushunchalari, tasavvurlari va qarashlaridir” [6:23].

Ushbu yoʻnalishda olib borilayotgan barcha ilmiy va boshqa turdagi izlanishlarda muammoning albatta tarbiyaviy jihatlar ham qayd etib boriladi. Shuning uchun boʻlsa kerak, yoshlar ongida va tasavvurida diniy qadriyatlar qay tarzida shakllanayotganini bilish, uni hosil qilish mexanizmlarini oʻrganish turli fanlar, masalan, pedagogika, psixologiya, falsafa, dinshunoslik yoʻnalishida muhim oʻrin tutadi.

Chunonchi, dunyo taraqqiyotida diniy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar sifatida turli xalqlar, millatlar tafakkuri va turmush tarziga singib ketgan. Shu bilan birgalikda, har bir xalq oʻzining hayot tarzi, mentaliteti diniy madaniyatini his qilishi va anglash xususiyatining mavjudligi bilan farq qiladi. Diniy qadriyatlar diniy madaniyatning hamma uchun muhim va ahamiyatli boʻlgan jihatlarini oʻzida aks ettirib, xalqning maʼnaviy holati sifatida qaror topishi va ijtimoiy hodisaga aylanishini doimo eʼtiborga olish kerak.

“Shuning uchun ham Sharq olamida, islom falsafasida odamlarning mahalla, yaʼni jamoa boʻlib yashashida, jamiyat hayotida tinchlik va osoyishtalikni saqlashda mehr-oqibatlik, shafqat va muruvvat naqadar katta oʻrin tutganini anglash mumkin” [3:62].

Tahlil va natijalar. Diniy qadriyatlarning rivojlantirilishi, umumiy madaniyatdagi oʻzgarishlarni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy negizida sodir boʻlgan oʻzgarishlar, uning mamlakat hayotidagi ijtimoiy islohotlar bilan uzviy bogʻliq holda amalga oshayotganligini bildiradi.

“Xalqimizning milliy qadriyatlari salkam 14 asrdan beri islom qadriyatlari bilan chambarchas bogʻlanib, bir-biriga singib ketgan. Shunday ekan, ota-bobolarimiz ulugʻlagan odamiylik, maʼrifat, poklik dini boʻlgan islomning jamiyatni ruhiy-axloqiy jihatdan sogʻlomlashtirish borasidagi taʼlimoti, xususan, uning uzviy qismlaridan boʻlgan oila tarbiyasiga oid qarashlarini chuqur oʻzlashtirish, oʻz kelajagini qurishga har tomonlama qobil nasllarni vujudga keltirishga hissa qoʻshadi. Zotan, oila qurish insonlar oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlarning mustahkamligi jamiyatning mustahkamligini belgilaydi” [1:3-4].

Ana shu jihatdan qaraganda inson aql-idroki, uning tafakkur darajasi, hayotiy falsafasi, jamiyatni taraqqiy ettirish yoʻlidagi saʼy-harakatlari, butun bir xalq, butun bir jamiyat mentalitetini oʻzida aks ettiradi.

Shu o‘rinda yoshlarni tarbiyalash jarayonida sog‘lom e‘tiqodni tarkib toptirish va diniy qadriyatlarga bo‘lgan sog‘lom munosabatni shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- umumiy madaniyat asosida ma’naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirish, milliy faxr va iftixor tuyg‘ularini mustahkamlash;
- diniy qadriyatlarni tahlil etishda milliy g‘oya va mafkura masalalarini o‘rganish;
- yosh avlodni har tomonlama barkamol va yetuk qilib tarbiyalash jarayonida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning mexanizmlaridan foydalanish;
- yoshlar ongida milliy qadriyatlarga bo‘lgan umumiy munosabatning shakllanishida turli tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish va hokazolar.

Allomalarimiz tomonidan yozib qoldirilgan ko‘plab manbalardan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishda, diniy manbalardan biri – hadislardan qo‘llash masalasiga ham yurtimizda katta e‘tibor qaratilgan.

Hadislar to‘plami bo‘lmish «Sunani Termiziy» alohida ahamiyatga molik asardir. Unda quyidagi fikrlarni o‘qiymiz:

“Hadis ilmi bilan shug‘ullangan zotlar (shu ilm atamalariga muvofiq) turli nomlar bilan atalganlar. Bulardan eng mashhurlari quyidagi uch laqab, uch nomdir.

Musnid – hadisni sanadi (roviylarning uzluksiz tartib-ro‘yxati) bilan rivoyat qilgan roviydir. Uning hadis sohasida bitimi bo‘lishi shart emas. Faqatgina hadisning matni va sanadi bilan eshitgan kishisidan aynan naql etadi.

Muhaddis – hadislarning sanadlarini, illatlarini, roviylarning ahvolini bilgan, imkoni boricha hadis yodlagan, kutubi sittani (olti mashhur hadis kitobini), Ahmad ibn Hanbalning “Musnad”ini, Bayhaqiyning “Sunan”ini, Tabaroniyning “Mu’jam”ini tinglagan (saboq olgan) va bularga hadis juz’laridan ming juz’gacha qo‘sha olgan kishidir.

Hofiz – hadis bilan shug‘ullangan zotlar orasida darajasi eng baland va maqomi yuksak bo‘lgan kishidir. Hofiz turli tarzlarda ta’rif etilgan. ...Ayrımlari esa har bir davrda va makonda nodir, kamyob bo‘lgan kishilar hofiz deb atalishini va bunday kishilar borligi hali-hamon mutazzir, ya’ni uzrli, istisno holat ekanligini uqtiradilar. Zero bir hadis olimining hofiz deb nomlanishi uchun keng va qamrovli ilm bilan birga nodir sifatlarining unda mavjud bo‘lishi shart qilingan [2:29-30]”.

Hadislardan pedagogik jarayonda foydalanish bugungi kunda bizga ularni o‘rganishning quyidagi mavzularini vujudga keltiradi:

- hadislarni tahlil etish yuzasidan olib borilgan pedagogik tadqiqotlar, tajribalarning rolini oshirish ;

- hadislarni o'rganishda xalq pedagogikasi materiallaridan foydalanishning ijobiy tomonlarini aniqlash;
- hadislar yordamida tarbiyalash jarayonining ijobiy tomonlarini tavsiflash;
- hadislarining pedagogik rivojlanish xarakterini asoslash;
- hadislardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bo'yicha tarbiyalash uslublarini, vositalarini aniqlash va hokazolar.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi siyosiy-iqtisodiy, madaniy sohalarda tamoman yangi davr boshlab berdi. Xalqimizning ko'p asrlik madaniyati tarixini kuzatish mustaqillik madaniyati, ma'naviyatini shakllantirishda tarixdan ko'p saboqlar olish mumkinligini va bu saboqlar kelajak uchun shubxasiz foydali ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi hayotning barcha sohalarida katta o'zgarishlarga olib keldi, bu o'zgarishlar jamiyatning mazmunan boyishi, uning jahon hamjamiyatiga kirib borishida ko'zga tashlandi. Mustaqillikni mustahkamlash bozor iqtisodiyotiga o'tish va hayotning demokratlashuvi jarayonlari bilan uzviy bog'liq xolda amalga osha borayotganini namoyon etdi.

Islomshunos olim Z.Husniddinov bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: "O'zbekistonda dunyoviylik bilan diniylik o'rtasida andoza sifatida qo'llash mumkin bo'lgan yangi nisbatning shakllanishi natijasida dinlararo bag'rikenglik va millatlaro totuvlikning ta'minlangani, qolaversa, tabarruk zaminimizning azaldan umumjahon tamadduni markazlaridan bo'lgani barchaga ayon.

Katta ishonch bilan aytish mumkinki, dunyoviy qarashlar va diniy e'tiqod madaniyat rivoji ham gullab-yashnashi umumiy jarayonning turli jihatlaridir. Umuman olganda, diniy va dunyoviy tamoyillarni sun'iy ajratish, ularni qarama-qarshi qilib qo'yish harakati zavolga yuz tutishini hayot ko'rsatdi" [7:14].

Hozir mustaqillikka erishgan O'zbekiston o'z milliy madaniyatini yuksak darajada rivojlantirishning eng muhim shartini, omilini qo'lga kiritdi va bu yo'lda ikkilanmay qadam tashlab, shiddat bilan bormoqda.

Shu bois mustaqillik yillarida boy ma'naviy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy madaniyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk xissa qo'shgan bobokalonlarimizning asarlari xalqimizga qaytarildi, tavallud kunlari butun mamlakat va xalqaro miqyosda nishonlandi.

Allomalar, buyuk siymolar merosi O'rta Osiyoda o'tmishda ilm-fan, madaniyatning barcha sohaları, tarmoqlari rivojlangani, ularning ijodlari ko'pqirrali bo'lganligi, faoliyatida ilm-fan bilan bir qatorda din, axloq, insonning ma'naviy dunyosi, jamoaning hamjixatligi, uni odilona boshqarish masalalari muhim o'rin tutganligidan dalolat beradi [5:176].

Xulosa va takliflar. Har bir xalqning ongida aynan shu xalqqa mos bo'lgan va asrlar davomida shakllanib bo'lgan milliy qadriyatlar mavjud bo'ladi. Ushbu qadriyatlar aksariyat holatlarda diniy ko'rinishga ega bo'lib, ular mahalliy an'analar va qadriyatlarda o'z aksini topadi. Ko'p holatlarda esa qadriyatlarning diniy ildizlari va manbalari to'g'risida mushohada etiladi va fikr bildiriladi. Shuningdek, diniy qadriyatlar haqida gap ketar ekan, e'tiqodni, xususan, sog'lom e'tiqodni shakllantirish masalalariga ham ko'p bor murojaat qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, yozma manbalar bilan bog'liq merosimizni psixologik jihatdan o'rganish katta ahamiyatga egadir.

Tarbiya jarayonida diniy manbalardan foydalanish masalasida yuzaga keladigan ilmiy muammoning psixologik yechimini izlash esa tarix bilan bog'liq manbalarni o'rganish muammolarini takomillashtirish, ilmiy-uslubiy shakllarini ishlab chiqishga qaratilgan masalalarni rivojlantirishda ambivalentlik xususiyatlari asosida tahlil olib borishni inobatga olish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mahkamov S. Islom dini va oila tarbiyasi. Mas. muh-r A.Mansur. – T.: G'.G'ulom nom. Adab. va san. nashr., 2000.
2. «Sunani Termiziy». Hadislar to'plami. VI jildlik. 1-jild. Tarjimon M.Kenjabek (Kenjaboev M.T.). – T.: “Adolat”, 1999. – 688 b.
3. Qo'chqorov V. Ma'naviyat – milliy o'zlikni anglash. – T.: “Akademiya” nashriyoti, 2008.
4. Uvatov U. Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o'rni (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy): Tarix fan. dokt. diss... avtoref. Toshkent, 2002. – 44 b.
5. O'zbekiston: islom obidalari // Fotoalbom o'zbek, ingliz va arab tillarida. – T.: “O'zbekiston”, 2002. – 263 b.
6. Haydarov A. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. Siyosiy-ma'rifiy nashr. – T.: “Muharrir”, 2008.
7. Husniddinov Z. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik: (Monografiya). /Z.Husniddinov; Mas'ul muharrir: A.S.Ochildiev. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006. – 164 b.